

BO'LAJAK OILAVIY SHIFOKORLARNI KASBIY MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TARKIBIY KOMPONENTLARI

Xalmuxamedov Bobir Taxirovich

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti, 1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va
preventiv tibbiyot asoslari kafedrasida assistenti, mustaqil izlanuvchisi.*

Toshkent, 100109, O'zbekiston

bobir.khalmukhamedov@gmail.com

+998977160848, <https://orcid.org/0000-0003-1953-5622>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik nazariy asoslari va tarkibiy tuzilmasi kompleks tahlil qilinadi. Xorijiy va milliy ilmiy manbalar hamda 60910200 "Davolash ishi" yo'nalishi malaka talablari asosida kasbiy motivatsiyaning motivatsion-maqсадli, kognitiv-axborotli, faoliyatli-amaliy, refleksiv va ijtimoiy-kommunikativ komponentlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida kasbiy motivatsiya integrativ pedagogik tizim sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy motivatsiya, oilaviy shifokor, kompetensiya, refleksiya, tibbiy ta'lim, professional identifikatsiya.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩИХ СЕМЕЙНЫХ ВРАЧЕЙ

Аннотация: В статье представлен комплексный анализ теоретических основ и структурных компонентов развития профессиональной мотивации будущих семейных врачей. На основе зарубежных и национальных научных источников, а также квалификационных требований направления «Лечебное дело» выделены мотивационно-целевой, когнитивно-информационный, деятельностно-практический, рефлексивный и социально-коммуникативный компоненты. Профессиональная мотивация рассматривается как интегративная педагогическая система.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, семейный врач, компетенция, рефлексия, медицинское образование.

DIDACTIC COMPONENTS OF DEVELOPING PROFESSIONAL MOTIVATION OF FUTURE FAMILY DOCTORS

Abstract: The article presents a comprehensive analysis of the theoretical foundations and didactic structural components of professional motivation development in future family physicians. Based on international and national scientific literature and qualification requirements of the "General Medicine" program, motivational-goal, cognitive-informational, activity-practical, reflective, and socio-communicative components were identified. Professional motivation is substantiated as an integrative pedagogical system.

Keywords: professional motivation, family physician, competence, reflection, medical education, professional identity.

KIRISH

Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami samaradorligini oshirish hamda aholi salomatligini mustahkamlash jarayonida oilaviy shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biroq kasbiy tayyorgarlik faqat bilim va ko'nikmalar bilan cheklanmaydi. Uning negizida kasbiy motivatsiya – shaxsning kasbga ongli munosabati, ichki ehtiyoji va ijtimoiy mas'uliyat hissi yotadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak shifokorlarning kasbiy motivatsiyasi murakkab, ko'p qirrali psixologik-pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi. Kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, kasbiy qadriyatlari, kasbga sodiqligi va amaliy faoliyatga tayyorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy motivatsiya ichki va tashqi omillar tizimi sifatida izohlanadi. Ryan va Deci tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory shaxsning avtonomiya, kompetensiya va ijtimoiy bog'liqlik ehtiyojlari kasbiy barqarorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Kusurkar kasbiy motivatsiyani kognitiv, qadriyatli va refleksiv komponentlar orqali izohlaydi. Eva va Regehr motivatsiyani o'z-o'zini baholash va professional o'sish bilan bog'laydi. Cleland kasbiy identifikatsiya va ijtimoiy yo'naltirilganlikni asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Ten Cate kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimida motivatsiyaning integrativ ahamiyatini ochib beradi.

MDH olimlari kasbiy motivatsiyani shaxsning kasbiy rivojlanish jarayoni bilan bog'laydilar. Verbitskiy kontekstli ta'limni, Zeer kasbiy o'zlikni anglashni, Mitina professional o'sish mexanizmlarini, Kuzmina natijaga yo'naltirilganlikni, Zimnyaya esa kompetensiyaviy yondashuvni asoslab beradi.

O'zbekiston olimlari kasbiy motivatsiyani tibbiy ta'lim jarayonida qadriyatli, klinik va innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shu boisdan bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasini tarkibiy jihatdan aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi – bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasini tarkibiy komponentlar asosida tizimli ravishda asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak shifokorlar kasbiy motivatsiyasi murakkab, ko'p komponentli psixologik-pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi. Mazkur tadqiqotlarda kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, kasbiy qadriyatlari va faoliyatga tayyorligi bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan.

R. Ryan va E. Deci (AQSh) Self-Determination Theory (SDT) konsepsiyasida kasbiy faoliyat motivatsiyasini ichki va tashqi motivlar tizimi sifatida o'rganadilar. Ular motivatsiyaning barqarorligi kasbiy kompetensiya, avtonomiya va ijtimoiy bog'liqlik ehtiyojlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi [1].

R.A. Kusurkar (Niderlandiya) kasbiy motivatsiyani kognitiv, qadriyatli va refleksiv komponentlar orqali tavsiflaydi [2].

K.W. Eva va G. Regehr (Kanada) kasbiy motivatsiyani faoliyatga tayyorlik, mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini rivojlantirish bilan bog'laydilar.

J. Cleland (Buyuk Britaniya) kasbiy identifikatsiya va ijtimoiy motivatsiyani shakllantirish masalalarini ochib beradi [4].

O. Ten Cate (Gollandiya) kompetensiyaga asoslangan tibbiy ta'lim tizimida kasbiy motivatsiyaning integrativ ahamiyatini asoslaydi. [5]

MDH davlatlari olimlari (A.A. Verbitskiy, E.F. Zeer, L.M. Mitina, N.V. Kuzmina, I.A. Zimnyaya) kasbiy motivatsiyani kontekstli ta'lim, kasbiy o'zlikni anglash, refleksiya va kompetensiyaviy yondashuv bilan bog'laydilar [6-10].

O'zbekiston olimlari (Sh. Abdullayeva, A.A. Arziqulov, F.A. Karimov, D.R. Ismoilova, O.M. Xudoyberdiyev) kasbiy motivatsiyani kasbiy qiziqish, klinik fikrlash, pedagogik texnologiyalar, tibbiy etika va innovatsion yondashuvlar bilan uyg'un holda tadqiq etganlar [11-15].

Respublikamiz, xorijiy va MDH davlatlari olimlarining ilmiy qarashlari tahlili hamda "Davolash ishi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha belgilangan malaka talablari mazmunini o'rganish natijasida bo'lajak oilaviy shifokorlar kasbiy motivatsiyasi murakkab, ko'p komponentli pedagogik hodisa ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega.

Qo'llanilgan metodlar:

ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish;
xorijiy va milliy ilmiy qarashlarni tizimlashtirish;
normativ-huquqiy hujjatlar va malaka talablarini mazmuniy tahlil qilish;
komponentli-strukturaviy modellashtirish;
integrativ-pedagogik yondashuv.

Tadqiqot obyekti – 60910200 “Davolash ishi” yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasi.

NATIJALAR

Bo'lajak oilaviy shifokorning kasbiy kompetentligini shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u shaxsning motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv hamda ijtimoiy-kommunikativ jihatlarini uyg'un rivojlantirishni talab etadi. Avvalo, motivatsion–maqsadli komponent shifokor shaxsining kasbga bo'lgan ichki munosabatini, uning kasbiy faoliyatni qanday qadriyatlar asosida anglashini belgilaydi. Oilaviy shifokorlik kasbi jamiyatda alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Shu bois bo'lajak shifokor o'z kasbini nafaqat daromad manbai, balki insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni ifodalovchi muhim hayotiy missiya sifatida qabul qilishi zarur. “Bemor–shifokor” munosabatlarida axloqiy me'yorlarga sodiqlik, kasbiy burch va mas'uliyatni chuqur anglash motivatsion komponentning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Shifokor bemor bilan muloqotda halollik, xolislik, sir saqlash, hurmat va e'tibor kabi qadriyatlarga amal qilishi orqali jamiyat ishonchini qozonadi. Sog'liqni saqlash tizimiga xizmat qilishni hayotiy maqsad sifatida qabul qilish esa shifokorning kasbiy barqarorligini ta'minlaydi, chunki ichki motivlar va shaxsiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan faoliyat yuqori samaradorlikni yuzaga keltiradi. Agar bo'lajak shifokor o'z faoliyatini inson salomatligini asrash, kasalliklarning oldini olish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bilan bog'liq ezgu maqsadlar bilan uyg'unlashtira olsa, u holda kasbiy qiyinchiliklar unga to'siq emas, balki rivojlanish omiliga aylanadi.

Kognitiv–axborotli komponent esa shifokorning nazariy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini aks ettiradi. Oilaviy shifokor keng qamrovli bilimga ega bo'lishi zarur, chunki u turli yosh va ijtimoiy guruhlariga mansub bemorlar bilan

ishlaydi. Tibbiyot va sogʻliqni saqlash sohasidagi nazariy bilimlarni puxta egallash, klinik fikrlashni rivojlantirish, diagnostika va davolash jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish bu komponentning asosiy vazifalaridandir. Zamonaviy tibbiyot axborotga boy soha boʻlgani sababli, shifokor axborotni toʻplash, tahlil qilish va amaliyotda qoʻllash koʻnikmalariga ega boʻlishi shart. Muammoli vaziyatlarda mantiqiy qaror qabul qilish, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillaridan foydalanish, klinik holatlarni kompleks baholash orqali toʻgʻri xulosa chiqarish kognitiv salohiyatning namoyonidir. Shuningdek, bilimlarni ijodiy va moslashuvchan qoʻllash, oʻzgaruvchan sharoitlarga tez moslashish, kasbiy strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish oilaviy shifokorning kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydi. Nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, uni real vaziyatlarda samarali qoʻllash qobiliyati shifokorni yuqori malakali mutaxassis darajasiga olib chiqadi.

Faoliyatli–amaliy komponent esa nazariy bilim va motivatsiyaning real faoliyatda namoyon boʻlishidir. Klinik va ambulator sharoitlarda ishlashga qiziqish, amaliy koʻnikma va malakalarni egallash, bemor bilan toʻgʻri muloqot oʻrnatish, diagnostik va davolash muolajalarini mustaqil amalga oshirish oilaviy shifokor faoliyatining ajralmas qismidir. Amaliyot jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, tezkor va asosli xulosa chiqarish, tashabbuskorlik koʻrsatish shifokorning professional yetukligini namoyon etadi. Masʼuliyat hissi esa har bir klinik qaror ortida inson salomatligi va hayoti turganini chuqur anglash bilan bogʻliq. Oilaviy shifokor bir vaqtning oʻzida profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya vazifalarini bajaradi, shuning uchun u koʻp funksiyali amaliy tayyorgarlikka ega boʻlishi lozim. Amaliy komponentning rivojlanishi muntazam mashgʻulotlar, klinik tajriba, ustoz-shogird anʼanalari hamda real vaziyatlarda faol ishtirok etish orqali taʼminlanadi.

Refleksiv komponent shifokorning oʻz faoliyatini tahlil qilish, oʻz imkoniyatlarini baholash va doimiy oʻsishga intilish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy tibbiyot tez surʼatlarda rivojlanayotgan soha boʻlgani sababli, shifokor oʻz bilim va koʻnikmalarini muntazam yangilab borishi zarur. Oʻz kasbiy imkoniyatlarini tanqidiy baholash, xatolar ustida ishlash, oʻz ustida izlanish refleksiv yondashuvning

asosiy belgilaridir. Shifokor har bir klinik holatdan saboq chiqarishi, muvaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil qilishi orqali o'z malakasini oshiradi. Kasbiy o'sish va rivojlanishga ichki ehtiyoj, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga qiziqish esa refleksiv komponentning yuqori darajada shakllanganini ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalar, yangi diagnostik usullar va davolash protokollarini o'rganish hamda amaliyotga joriy etish shifokorning zamonaviy talablarga mosligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-kommunikativ komponent esa oilaviy shifokorning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini, muloqot madaniyatini va empatik yondashuvini belgilaydi. Shifokor kasbi inson bilan bevosita ishlashni talab qilgani uchun empatiya, sabr-toqat va kommunikativ madaniyat muhim ahamiyatga ega. Bemorning ruhiy holatini tushunish, uning dardiga befarq bo'lmaslik, ishonchli va samimiy muloqot o'rnatish davolash jarayonining samaradorligini oshiradi. Tibbiy etikaga rioya qilish, kasbiy sirni saqlash, bemor huquqlarini hurmat qilish ijtimoiy mas'uliyatning ko'rinishidir. Jamoada ishlash qobiliyati esa sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rin tutadi, chunki shifokor hamshiralar, tor mutaxassislar va boshqa tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Ijtimoiy mas'uliyatni his etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, profilaktik tadbirlarda ishtirok etish orqali shifokor jamiyat salomatligiga bevosita hissa qo'shadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasi bir o'lchovli psixologik holat emas, balki ko'p komponentli, integrativ va dinamik pedagogik tizim ekanligini ko'rsatdi. Aniqlangan beshta komponent — motivatsion-maqсадli, kognitiv-axborotli, faoliyatli-amaliy, refleksiv va ijtimoiy-kommunikativ — o'zaro bog'liq holda shakllanib, kasbiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Avvalo, motivatsion-maqсадli komponent kasbning ma'naviy-axloqiy asosini tashkil etadi. Agar shifokor kasbni faqat ish yoki daromad manbai sifatida qabul qilsa, uning kasbiy barqarorligi past bo'ladi. Aksincha, kasbni ijtimoiy missiya sifatida qabul qilish, bemor manfaatini ustuvor qo'yish va kasbiy burchni anglash ichki motivatsiyani shakllantiradi. Ryan va Deci nazariyasiga muvofiq, aynan ichki motivatsiya kasbiy faoliyatda barqarorlik va uzoq muddatli samaradorlikni

ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, motivatsion-maqсадli komponent butun modelning "yadrosi" vazifasini bajaradi.

Kognitiv-axborotli komponent esa kasbiy motivatsiyaning intellektual asosini ta'minlaydi. Shifokorning klinik fikrlashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va bilimlarni ijodiy qo'llay olishi uning kasbiy ishonchini oshiradi. Ishonch esa motivatsiyani kuchaytiradi. Demak, bilim va motivatsiya o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Agar ta'lim jarayonida nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashtirilsa, talabalarda kognitiv qiziqish va kasbiy ishonch mustahkamlanadi.

Faoliyatli-amaliy komponent motivatsiyaning real klinik sharoitda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Amaliy mashg'ulotlar, klinik rotatsiyalar, simulyatsion ta'lim va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Verbiskiy ta'kidlagan kontekstli ta'lim aynan shu komponentni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan o'quv jarayoni motivatsiyani barqarorlashtiradi.

Refleksiv komponent kasbiy motivatsiyaning dinamik xususiyatini belgilaydi. Shifokor o'z xatolarini tahlil qilmasa va o'zini takomillashtirishga intilishga ega bo'lmasa, uning kasbiy o'sishi sekinlashadi. Refleksiya kasbiy o'zlikni anglashni chuqurlashtiradi va professional identifikatsiyani shakllantiradi. Zeer va Mitina ishlarida ta'kidlanganidek, kasbiy o'sish doimiy o'zini tahlil qilish jarayoni bilan bog'liq.

Ijtimoiy-kommunikativ komponent esa oilaviy shifokor faoliyatining eng muhim jihatlaridan biridir. Oilaviy shifokor aholi bilan bevosita ishlaydi, turli yosh va ijtimoiy qatlam vakillari bilan muloqot qiladi. Shu bois empatiya, kommunikatsiya madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalari motivatsiyaning ijtimoiy yo'naltirilganligini belgilaydi. Cleland ta'kidlagan kasbiy identifikatsiya aynan ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyidagicha izohlash mumkin:

- motivatsion komponent ichki turtkini yaratadi;
- kognitiv komponent bilim asosini ta'minlaydi;
- faoliyatli komponent amaliy tajriba orqali mustahkamlaydi;
- refleksiv komponent doimiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi;

-ijtimoiy komponent kasbiy identifikatsiyani shakllantiradi.

Shunday qilib, kasbiy motivatsiya tizimli yondashuvni talab qiladi. Faqat bir komponentni rivojlantirish orqali barqaror natijaga erishib bo'lmaydi. Ta'lim jarayoni kompleks, integrativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlillar va komponentli modellashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasi murakkab, ko'p komponentli va integrativ pedagogik tizim hisoblanadi. Shuningdek, kasbiy motivatsiya beshta asosiy komponent orqali namoyon bo'lishi ilmiy tadqiqot orqali isbotlandi. Jumladan, motivatsion-maqсадli; kognitiv-axborotli; faoliyatli-amaliy; refleksiv; ijtimoiy-kommunikativ komponentlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation // American Psychologist. – 2000. – Vol.55(1). – P.68–78.
2. Kusrkar R.A. Motivation in medical students: a PhD thesis report // Perspectives on Medical Education. – 2012. – Vol.1(3). – P.155–157.
3. Eva K.W., Regehr G. Self-assessment in health professions education // Academic Medicine. – 2005. – Vol.80(10). – P.S46–S54.
4. Cleland J. The development of professional identity in medical education // Medical Education. – 2017. – Vol.51(1). – P.45–52.
5. Ten Cate O. Competency-based medical education // Medical Teacher. – 2017. – Vol.39(6). – P.594–602.
6. Verbiskiy A.A. Kontekstnoe obuchenie. – M.: Vysshaya shkola, 1991.
7. Zeer E.F. Psixologiya professionalnogo razvitiya. – M.: Akademiya, 2006.
8. Mitina L.M. Psixologiya professionalnogo razvitiya lichnosti. – M.: Flinta, 2004.
9. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatela. – M., 1990.
10. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultatивно-selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda. – M., 2004.
11. Abdullayeva Sh. Tibbiyot ta'limida kasbiy motivatsiya masalalari. – Toshkent, 2018.
12. Arziqulov A.A. Talabalar o'quv-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2019.
13. Karimov F.A. Tibbiyot talabalari klinik fikrlashini rivojlantirish. – Toshkent, 2020.
14. Ismoilova D.R. Tibbiy etika va kasbiy qadriyatlar. – Toshkent, 2021.
15. Xudoyberdiyev O.M. Tibbiyot ta'limida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2022.